

Date: 13th June-2026

ZAMONAVIY G'OYAVIY XURUJLAR VA YOSHLARNING MAVKURASI RIVOJLANIRISH OMILLARI

Yusupov Axrorjon Qurbonovich
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD),
Qo'qon davlat universiteti v.b.dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugunning dolzarb masalasi o'smirlik yoshida mavkurasi rivojlantirish omillari yoritilgan. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish - jamiyatning eng muhim vazifasi yoshlarning milliy his-tuyg'ulari, maqsad va intilishlari, ma'naviy-ma'rifiy va ruhiy-axloqiy darajasiga bevosita bog'liq ekanligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar tarbiyasi, ma'naviy, milliy his-tuyg'ular, maqsad, ma'naviyat-ma'rifat, ruhiy-axloqiy, immunitet, siyosiy, iqtisodiy bilim.

СОВРЕМЕННЫЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ НАПАДЕНИЯ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПОЗИЦИИ МОЛОДЕЖИ

Юсупов Ахроржон Курбонвич,
доктор философии (PhD) в области политологии,
исполняющий обязанности доцента Кокандского государственного
университета

Аннотация. В данной статье рассматривается актуальная проблема развития идеологии в подростковом возрасте. Утверждается, что формирование идеологического иммунитета является важнейшей задачей общества, непосредственно связанной с национальными чувствами, целями и устремлениями, духовно-просветительским и духовно-нравственным уровнем молодежи.

Ключевые слова: Воспитание молодежи, духовность, национальные чувства, цель, духовно-просветительское, духовно-нравственное, иммунитет, политическое, экономическое знание.

MODERN IDEOLOGICAL ATTACKS AND FACTORS OF DEVELOPMENT OF YOUTH'S POSITION

Yusupov Akhrorjon Qurbonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science,
Acting Associate Professor of Kokand State University

Abstract. This article discusses the current issue of the development of ideology in adolescence. It is stated that the formation of ideological immunity is the most important task of society, which is directly related to the national feelings, goals and aspirations, spiritual-enlightenment and spiritual-moral level of young people.



Keywords: Youth education, spiritual, national feelings, goal, spirituality-enlightenment, spiritual-morality, immunity, political, economic knowledge.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonining jadallashuvi har bir davlatdan shunga mos holda choralar ko'rishni taqozo etmoqda, desak, ayni haqiqat. Ayniqsa, dunyo bo'yicha turli buzg'unchi g'oyalar yaqqol bo'y ko'rsatayotgan hozirgi sharoitda ertamiz egalari bo'lgan yoshlarimizni ularning ta'siridan asrab qolish yanada dolzarblik kasb etayotir. Shu bois mamlakatimizda jamiyatda radikallashuv, yoshlar ongining buzg'unchi, yot g'oyalar bilan zaharlanishini va dindan siyosiy maqsadda foydalanishning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar ro'yobga chiqarib kelinmoqda.

Ammo hozirgi sharoitda faqat shuning o'zi bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Shunga ko'ra, dindan siyosiy maqsadda foydalanishga qaratilgan har qanday urinishning oldini olish bo'yicha hududlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan mas'ul idoralarga ham, vakillik organlari va jamoatchilik vakillariga ham zarur ko'rsatma va tavsiyalar berib borish foydadan holi bo'lmaydi. Albatta, bu boradagi faoliyat mavjud vaziyat hamda aholi xohish-istaklari asosida muntazam takomillashtirilib boriladi.

Afsuski, keying paytda ma'naviy hayotimoizda bo'shash, bo'shliq paydo bo'lgani tufayli bazi yo'shlar yurish-turishida ham, muomala-madaniyatida ham yeti yo't begonalarga ko'r ko'rona ergashmoqda.

Yoshlar tarbiyasida jamoatchilikning ro'li susayib borayotganligi barchamizni tashvishga solishi lozim. Ilgari "Bir bolaga etti mahalla ota-ona", degan maqolga amal qilib yashardik. O'gil qizlarimizning ahloq-odobi, o'qishi uchun nafaqat ularning ota-onalari, avvalo, maxalla ahli, kayvoni keksalar, ziyolilar o'zini mas'ul va javobgar deb bilardi. Shuning uchun ham mahallarimizda urush-janjal, bezorilik, ichkilikbozlik qilib bekorchi yuradigan yo'shlar, oilavi ajrimlar kam bo'lardi. Keksa avlod vakillari yoshlarni mexnatga, o'z uyini, ko'chalar va guzar va maydonlarni ozoda tutishga o'rgatardi.

Ma'naviyatimiz uchun eng kata xavf – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, buham ayni xaqiqat bo'ladi [1,272].

O'zbekistonimizni dunyodagi taraqqiy etgan davlatlardan biriga aylantirish uchun farzandlarimizda soglom e'tiqod va dunyoqarash, umummilliy birlik bo'lmogi darkor. Ma'lumki, mafkuraviy immunitetning shakllanishi birdaniga yuz bermaydi. U milliy manfaatlar ustuvorligi nuqtai nazarini shakllantirish hamda o'smirlarning yangi, xolis bilimlarga ega bo'lishlari bilan amalga oshadi. Bu fan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan birgalikda yoshlarning siyosiy qarashlarini shakllantiradi hamda yot mafkuralarning ko'rinishlariga murosasizlikni tarbiyalaydi. Bunda milliy qadriyatlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir fuqaro, yigit-qiz, o'quv guruhi, mahalla ahlining mafkuraviy immunitetini besh darajada baholash mumkin: birinchi daraja — fuqaro, yoshlar milliy goyamiz mohiyatidan xabardor emas; ikkinchi daraja — xabardor, lekin milliy goya chuqur anglanmagan; uchinchi daraja — bilim bor, lekin nazariy bo'lib, yoshlarimiz ularni kundalik hayotda qo'llashga qiynaladi; to'rtinchi daraja - milliy goya



Date: 13th June-2026

anglangan, goyaviy ta'sirni shaxsiy va milliy manfaatlar uyg'unligidan kelib chiqib baholay oladi: ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi zarur immunitetni namoyon qila oladi, biroq, boshqalarni bu ishga da'vat eta olmaydi; beshinchi daraja - yoshlar milliy goyani o'z e'tiqodiga aylantirgan va buni hamma joyda doimo qo'llaydi.

Buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy goyalarga qarshi faol kurashadi, boshqalarni ham shunga faol da'vat qiladi. Mafkuraviy immuniteti yuksak darajada shakllangan fuqaro atrofida gilarni ham goyaviy tarbiyalash salohiyatiga ega bo'ladi[2,439]. Millat manfaatlarini o'z manfaati, o'z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi. Shaxsning ma'naviyatiga tahdid soladigan xavflar va ulardan o'zini ongli himoya qilish ko'nikmalari ta'lim-tarbiya, ota-onalar o'gitlari, yaxshilik va yomonliklarni ko'rishi va bilishi jarayonida shakllana boradi. Bolaga ilk yoshidan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak, degan savollarga asoslangan bog'cha, maktab tarbiyasi, undan keyin ijtimoiy tarbiya yo'lga qo'yilsagina har bir millat sog'lom, ishonchli, mustahkam immunitetga ega bo'ladi. Immunitet esa o'z navbatida odamni to'g'ri yo'ldan "ozish"dan, turli yo'llarga adashib, keyin pushaymon bo'lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa - parokandaliklardan, parchalanishlardan, sinfiy, mahalliy yoki boshqa bo'linishlardan asrab turadi. Demak, mafkuraviy immunitet - davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi[4]. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish — jamiyatning eng muhim vazifasi yoshlarning milliy his-tuyg'ulari, maqsad va intilishlari, ma'naviy-ma'rifiy va ruhiy-axloqiy darajasiga bevosita bog'liq bo'lgan dolzarb hodisadir. Bugungi dunyodagi murakkab mafkuraviy vaziyat yoshlarimizda g'oyaviy immunitetni tarbiyalashni faollashtirishni talab qiladi. Bu g'oya yoshlarimizda ishonchni, mustaqil, ijodiy fikrlashni shakllantirish, Vatanning taqdiriga mas'ullik hissini rivojlantirish va albatta, bizga yot bo'lgan odatlar va qarashlarga nisbatan sobit e'tiqodni yaratish zarurligi haqidagi haqqoniy fikrlarida o'z ifodasini topgan. Mafkuraviy immunitet ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishini emas, balki ularni ongli ravishda tushunib etishni, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog'lom g'oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik holatidir[3,126].

Mafkuraviy immunitet muayyan g'oyalar to'qnashgan vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Mafkuraviy immunitet fikriy jarayon natijasi bo'lganligi tufayli u ilmiy asoslangan, dalillar sistemasiga quriladi. O'smirlar mafkuraviy immunitetining tarkibini mafkuraviy bilim (vayronkor va bunyodkor g'oyalarning mohiyati, farqi haqidagi) (H) his-tuyg'u, (I) iroda, (K) ko'nikma va malakalar (M)tizimi tashkil qiladi. Mafkuraviy ko'nikmalar bilim, faoliyat va hatti-harakatlar birligida namoyon bo'ladi. Malakalar esa yot g'oyalar ta'siriga qarshi qaratilgan avtomatlashgan munosabat, adekvat yo'l va usullardir. Shu tariqa mafkuraviy immunitetning formulasini quyidagicha ifodalash mumkin: Mafkuraviy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishida milliy g'oya negizlari muhim rol o'ynaydi. Agar mafkuraviy tahdid sezilganda, nima qilish kerakligini o'ylab o'tirmay va ayrim harakatlarga alohida diqqat qilib o'tirmay g'oyaga g'oya bilan javob berish amalda bajarila boriladigan bo'lsa, mafkuraviy immunitet amaliy shakllandi, deb



Date: 13th June-2026



hisoblash mumkin. Milliy istiqlol g'oyalariga shaxsning ishonchi, mustahkam irodasi uning mafkuraviy immuniteti manbai hisoblanadi. Bunday mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan shaxs yot mafkuralar ta'siriga berilmaydi, chunki Milliy g'oya mafkuraviy immunitetni shakllantirishda o'ziga xos imkoniyat va xususiyatlarga ega.

Mafkuraviy immunitet milliy mustaqillikning afzalliklariga bo'lgan ishonchga quriladi. Bu ishonch esa ishontirish, tushuntirish natijasida hosil bo'ladi. Masalan, O'zbekiston - dunyoviy davlat. Dunyoviy davlat faoliyatining asosiy tamoyillari, afzalliklari ularni diniy davlat bilan taqqoslagandagina keng va to'liq tushunchalarni beradi. Bu dunyoviy milliy-demokratik tuzumning mohiyati va afzalliklarini anglab etishga olib keladi.

Jamiyatning o'z ertasi va kelajagiga ishonchi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Buning zamirida millat baxt-saodati yo'lida, demak har bir fuqaro manfaatidan kelib chiquvchi maxsus faoliyat – mafkuraviy tarbiya yotadi. Mafkuraviy tortishuvlardagi g'oyani ommalashtirish uslublari – mafkuraviy tarbiya uslublaridir. Bu bahsda pirovard natijani ilimga asoslangan targ'ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar kurashi – g'oyalar targ'iboti va tashviqoti tortishuviga aylanadi. Jamiyatga yot mafkuralar o'z g'oyalarini birdaniga olib kira olmaydi. Ular avvalo mahv qilinishi kerak bo'lgan millat azaldan ishonib kelgan qadriyatlarga ishonchini, umidini so'ndiradi. Buning uchun millat ishonib kelgan qadriyatlar yomonlanadi, obro'sizlantiriladi.

Natijada mafkuraviy immunitetni sindirishning birinchi bosqichi amalga oshadi – millat o'zi ishonib kelgan g'oyalar, qadriyatlarga befarq munosabatda bo'la boshlaydi. Bo'shliq ana shunday yaratiladi, "ochib olinadi". Mafkuraviy bo'shliq hosil bo'lgach, endi uning o'rnini to'ldiruvchi yot g'oyalar jozibali tasvirlana boshlanadi. Buzg'unchi g'oyaga xos "yangilik" va u berayotgan va'dalar odamlar qulog'i va ko'zi orqali ong va qalbiga kira boshlaydi. Mafkuraviy bo'shliq shu tariqa to'ldirila boshlanadi. Yolg'on g'oya odamlar ongiga o'rnashsa, u ham amaliy kuchga aylanadi. Hozirgi fan va texnologiyalar ravnaqi davrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, g'araz maqsad bilan ta'sir ko'rsatishni ifodalashda manipulyatsiya keng ishlatilmoqda. Ushbu vaziyatda shaxs va uning mafkuraviy immunitetiga ta'sir ko'rsatish jarayoni manipulyatsiya tushunchasida aks etadi.

Ayni chog'da yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish ham hayotiy zaruratdir. Buni o'tgan yilda ayrim davlatlarda ro'y bergan va hozir ham davom etayotgan noxush voqealar bu borada quruq gaplardan amaliy ishlarga o'tish vaqti allaqachon kelganligini ko'rsatib turibdi.

Shunday ekan, Mudofaa vazirligi, yoshlar siyosatini ro'yobga chiqarishga mas'ul bo'lgan tuzilmalar, ta'limga mutasaddi vazirliklar va, albatta, keng jamoatchilik bilan birgalikda tom ma'nodagi vatanparvarlik, el-yurt taqdiriga daxldorlik hissini yoshlarimiz qalbiga, ongu shuuriga singdirish ishlarini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish ayni muddao. Va bunda yoshlarimizda yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Tabiiyki, bu o'z-o'zidan bo'lib qolmaydi. Ya'ni sa'y-harakatlarimizni zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Ayniq aytadigan bo'lsak, Vazirlar

Date: 13th June-2026



Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasida belgilab berilgan yo‘nalishlardagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, bu jarayonga fuqarolar, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini keng jalb etish maqsadga muvofiq. Tahlillar jamiyatimizda radikallashuv, yoshlar ongining buzg‘unchi, yot g‘oyalar bilan zaharlanishi va dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishning oldini olishga mas‘ul vazirlik va idoralar hamkorligi borasida muammo va kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Masalan, hududlarda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha ishlar samarali va ta’sirchan tarzda yo‘lga qo‘yilmagan. Yoshlar o‘rtasida bo‘ladigan sport musobaqalari va ko‘rik-tanlovlarning quyi bosqichlarini o‘tkazishda sustkashlik mavjud. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga yo‘naltiriladigan profilaktik tadbirlar ham talabga javob bermaydi.

Yana bir xavotirli jihat shundaki, bugungi kunda Rossiya, Turkiya va Misr davlatlarida ishlayotgan yoki o‘qiyotgan Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari orasida soxta salafiylik radikal oqimining tarafdorlari ortib bormoqda. Bu oqim yetakchilari tomonidan yagona Islom xalifaligini tuzish g‘oyasi keng targ‘ib etilayotgani tashvishlidir. Hozirda islom dini aqidalarini buzib, aslida g‘araz maqsadlarni ko‘zlayotgan kimsalar “hijrat qilmaganlar kofir, kofir yurtida yashamoqlik kufr” degan bo‘lmag‘ur fikrlar bilan fuqarolarni aldab, xorijdagi jangarilar tayyorlanadigan markazlarga jo‘natishga harakat qilmoqda. Ko‘rinib turibdiki, bu kabi holatlarning o‘z vaqtida oldi olinmasa voyaga yetmaganlarning keyinchalik ekstremistik va terroristik tashkilotlar ta’siriga tushib qolishi hech gap emas. Aytish joizki, bu kabi qonunbuzarlik uchun O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 47-moddasida javobgarlik ko‘zda tutilgan bo‘lib, 2022-yilda 234 nafar ota-ona ushbu moddaga muvofiq javobgarlikka tortilgan. Qolaversa, yurtimizda voyaga yetmagan bolalarga taqiqlangan diniy adabiyotlar asosida noqonuniy ta’lim berish bilan shug‘ullanish holatlari ham uchramoqda. Masalan, 2022-yilda 564 ta noqonuniy diniy ta’lim berish bilan shug‘ullanib kelayotgan hujralar hamda ularda 4943 nafar, shundan 3052 nafar voyaga yetmagan shaxslar noqonuniy ta’lim olayotgani aniqlangan[5]. Boshqa mutasaddi tuzilmalar bilan birga aholiga, xususan, yoshlarga eng yaqin bo‘g‘in bo‘lgan mahalla fuqarolari yig‘inlarining faoliyatidagi sustkashlik, e’tiborsizlik bu kabi qonunbuzarliklar soni ortishiga zamin yaratayotgani ham bor gap. Zotan, har bir fuqaroning yurish-turishi, hulq-atvori va ulardagi o‘zgarishlar birinchi navbatda mahalla fuqarolari yig‘ini faollariga ma’lum bo‘ladi. Afsuski, hamma mahallalarda ham bu kabi jihatlarga e’tibor qaratilmayapti. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan tushuncha, milliy qadriyatimizga aylangan tamoyil unutilib bormoqda.

Xulosa

Umuman olganda, mamlakatimizda farzandlarning turli radikal va zararli g‘oyalar ta’siriga tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan muhim chora-tadbirlar ko‘rib kelinmoqda. Endigi vazifamiz esa shu ishlarni yanada kuchaytirishdan iboratdir. Bunda birinchidan, “da’vatchi”ning ta’siri shaxsga nisbatan zo‘rlik va kuch ishlatmasdan, balki ma’naviy, psixologik xususiyatga ega bo‘ladi; ikkinchidan, bu ta’sirda asl maqsad yashirin qoladi. Shuning uchun ham “islom dini niqobida” degan ibora ishlatiladi; uchinchidan,

Date: 13th June-2026

g'oyaviy manipulyatsiya, zimdan ta'sir ko'rsatuvchidan mahorat va bilimni talab qiladi. Shunday ekan, g'oyaviy manipulyatsiyani mafkuraviy kurash, yot mafkuralar tomonidan qo'llanilayotgan ta'sir texnologiyasining tarkibiy qismi, deb atash mumkin. Ya'ni manipulyatsiya odamni u yoki bu ishni qilishga emas, (targ'ibot va tashviqotdan farqli o'laroq), balki shu ishni qilishga xohish, istak uyg'otishga xizmat qiladi. Shaxs psixosotsional xolatlariga bevosita ta'siri natijasida filtrlanmagan g'oyalar kirishi mumkinligi ortadi. Bu g'oyalar yoshlar mafkurasini o'zgartirishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Yoshlarni so'g'lom fteran fikrlaydigan yo't go'yalarni ajrata oladigan qilib tarbiyalashimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - 416-b.
2. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. – Toshkent.: O'zbekiston, 2001. T.9. -439 b.
3. Karimov I.A. Jamiyatni erkinlashtirish, isloxotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. –Toshkent.: O'zbekiston, 2007, T. 15. -126 b.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.–T.:TDPU, 2006.
5. <https://www.senat.uz/articles/post-874>
6. Юсупов, Ахроржон, and Баходирхан Кодирхан угли Нуманов. "Кипчаки ферганской долины и их участие в этническом процесса." Ученый XXI века 6-2 (2016).
7. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon, and Hasanov Mukhtarjon Kakharamonjon o'g'li. "DIPLOMATIC AND TRADE-ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KOKON KHAN AND RUSSIA." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 3.5 (2023): 183-187.
8. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "Theoretical and methodological approaches to increase the political culture of citizens." Journal of Advanced Zoology 44.S2 (2023): 3916-3925.
9. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. "YOSHLAR IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI." IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI 3.11 (2023): 42-46.
10. AQ Yusupov, BS Kodirov YANGI O 'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA FUQAROLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI Oriental Art and Culture 4 (5), 33-36
11. BS Kodirov, AQ Yusupov - Oriental Art and Culture, 2023 O'ZBEKISTONNI RIVOJLANISHIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING IMKONIYATLARI.
12. Musaev, Odil, et al. "Socio-philosophical interpretations of such concepts as" ethnos" and" nation" as social unit."." International Journal of Advanced Science and Technology 29.5 (2020): 1936-1944.

Date: 13th June-2026

13. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. "Fuqarolarning siyosiy madaniyatini oshirishning nazariy va uslubiy yondashuvlari". Ilg'or zoologiya jurnali 44 (2023): S2.
14. Yusupov, Axrorjon. "O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MADANIY VA MAFKURAVIY OMILLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 11 (2024): 81-83.
15. A Yusupov, U Ergashev - Qadimgi Misr madaniyati, dini va urf odatlari Interpretation and researches, 2023
16. Юсупов, А. К. "Роль гражданской активности в демократизации общества." Вопросы политологии 10.9 (2020): 2709-2716.
17. Юсупов, Ахрор. "СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ГРАЖДАН." Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история. 2020.
18. A Yusupov - Fuqarolarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishning madaniy-ma'naviy va mafkuraviy omillari. O'zbekiston milliy universiteti xabarleri, 2022
19. Yusupov, Axrorjon. "O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MADANIY VA MAFKURAVIY OMILLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 11 (2024): 81-83.
20. Yusupov, Axrorjon. "O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOYLAHUVIDA MILLIY-SIYOSIY MENTALITETNING O'RNINI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 13 (2024): 223-224.
21. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon, and Hasanov Mukhtarjon Khahramonjon o'g'li. "ETHNIC COMPOSITION OF THE BRONZE AGE POPULATION OF UZBEKISTAN." International Scientific and Practical Conference of Students and Young Scientists" Sustainable Development: Problems, Analysis, Prospects"(Poland). Vol. 3. 2023.
22. Yusupov Axrorjon Qurbonovich Философия и право YANGI O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA YOSHLARNING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI 2023 98-1016.

